

AZIM HOJIYEVNING O'TGAN, HOZIRGI VA KELASI ZAMON HAQIDAGI
QARASHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7878188>

Maxmudboyeva Feruza Tolibjon qizi

GulDU magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fe'l va uning zamon kategoriyasi hamda o'tgan, hozirgi, kelasi zamon fe'l shakllari haqida so'z boradi. Bundan tashqari maqolada hozirgi o'zbek tili fe'lning zamon formalariga juda boyligi bilan ham ajralib turishi haqida fikr yuritiladi*

Kalit so'zlar: *fe'l, zamon, affiks, tushlash, o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, forma, kategoriya*

Fe'l murakkab kategoriyalarga boy so'z turkumi hisoblanadi. Fe'llarning grammatik kategoriyalari fe'l turkumiga kiruvchi so'zlarning sintetik yoki analitik shakllarini o'zaro qarama-qarshi qo'yish vositasida ifodalanadi. Grammatik zamon kategoriyasi tillarda eng ko'p tarqalgan fe'l kategoriyalaridan biridir. Fe'lning zamon kategoriyasi ish-harakatning nutq sodir bo'lishi paytiga nisbatan amalga oshishini ko'rsatadi. Nazariy jihatdan bu kategoriya gapirilayotgan paytda, gapirilayotgan paytdan oldin, gapirilayotgan paytdan keyin sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalaydi. Ko'pchilik tillarda zamon grammatik kategoriyasi ana shu uch xususiy ma'nodan tashkil topgan.[1]

Fe'l bildirgan harakatning bajarilishi, albatta, ma'lum bir vaqtda bo'ladi. Demak, harakat vaqt (zamon) tushunchasi bilan aloqador bo'ladi. Fe'l bildirgan harakat obyektiv harakatning tildagi ifodasi bo'lganidek, fe'llardagi zamon ham harakatning bajarilishi bilan aloqador bo'lgan obyektiv vaqtning tildagi ifodasidir. Lekin obyektiv zamonning tildagi ifodasining o'zi grammatik zamon kategoriyasi hisoblanmaydi. Grammatik zamon kategoriyasi harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi. Nutq momenti ham subyekt tomonidan belgilanadigan qandaydir vaqt bo'lagi bo'lmay, obyektiv zamon (vaqt)ning so'zlovchi gapi, so'zi (nutqi) to'g'ri kelgan bo'lagidir (so'zlash, nutq ham harakat hisoblanadi va uning bajarilishi obyektiv vaqtning biror qismiga to'g'ri keladi). Harakat bajarilish vaqtining nutq momentiga munosabatiga qarab fe'lning uch xil zamoni farqlanadi:

- 1) nutq momentigacha bo'lgan harakat — o'tgan zamon;
- 2) nutq momentida ham davom etayotgan (tugamagan) harakat — hozirgi zamon;
- 3) nutq momentidan keyin bo'ladigan harakat — kelasi zamon.

Zamon ma'nolari maxsus formalar orqali ifodalanadi va bu formalar fe'lning zamon formalari deb ataladi.

Ijro maylidagi fe'llarda harakatning nutq momentiga mu-nosabati bevosita ifodalanadi. Bu mayl formasi bildirgan za-mon absolyut zamon hisoblanadi. Ayrim fe'l formalari, masalan, sifatdosh va ravishdosh formalari harakatning nutq momen-tiga munosabatini bevosita ko'rsata olmaydi. Shuning uchun bulardagi zamon nisbiy zamon bo'ladi (Bu haqda «sifatdosh» va «ravishdosh» bo'limlarida gapiramiz).

Hozirgi o'zbek tili fe'lning zamon formalariga juda boyligi bilan ham karakterlanadi. Bu formalarning o'zaro umumiy bo'lgan tomonlarini va har birining o'ziga xos xususiyatlarini belgilash ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Turli darslik va qo'llanmalar, ayrim monografiyalar, shu-ningdek siyosiy plandagi ishlardan tashqari, o'zbek tilidagi fe'l zamonlari temasi bo'yicha to'rtta kandidatlik dissertatsiyasi yoqlandi. Biroq har bir zamon formasining o'ziga xos xususiyati haqidagina emas, hatto, hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'lning qaysi zamoni qanday formalarga egaligi haqida ham shu vaqtga qadar bir xil fikrga kelingan emas. Misol uchun hozirgi vaqtda yuliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma vazifasini o'tayotgan ishlarda kelasi zamon fe'l formalari haqidagi fikrlarni olib ko'raylik. Bu ishlarning avtorlari kelasi zamon fe'li yasovchi maxsus formantlar sifatida quyidagilarni ko'rsatadilar:

-digan (boradigan, ishlaydigan), -(a)r (borar, ishlar);

-(a)r (borar, ishlar), -jak (borajak, ishlayajak), -gu (-ku, -gu, -qu) (borgum, ishlagum)sh;

-(a)r (borar, ishlar), -jak (borajak, ishlayajak);

-(a)r (borar, ishlar), moqchi (bormoqchi, ishlamoqchi), -di-gan (boradigan, ishlaydigan);

-jak (borajak, ishlayajak), -moqchi (bormoqchi, ishlamoqchi), -(a)r (borar, ishlar), -digan (boradigan, ishlaydigan);

-adi, -ydi (boradi, ishlaydi), -(a)r (borar, ishlar), -jak (borajak, ishlayajak), -gu (-ru, -ku, -hu) (borgum), -gay (borgay), -digan (boradigan, ishlaydigan), -moqchi (bormoqchi, ishlamoqchi).

Bu ishlarning hammasi hozirgi o'zbek adabiy tili haqida yozilgan ishlar. Ko'rinib turibdiki, bir avtorda kelasi zamon fe'li yasovchi deb qaralgan ayrim formantlar loyihasida shunday for-mant sifatida e'tirof etilmaydi. Bir ishda kelasi zamon fe'li yasovchi ikki formant borligi ko'rsatilgani holda, bosha bir ishda bunday formant o'zbek tilida yettita ekanligi tan olinadi. Bundan tashqari, keltirilgan formalarning ayrimlarining ma'nosi haqidagi qarashlar ham bir xil emas. Masalan, -digan formanti faqatgina to'rtta ishda kelasi zamon fe'li yasovchi af-fiks sifatida beriladi. Lekin uning ma'nosi haqida bir-biridan farqli uch xil fikr aytilgan. Bu affiks yordamida yasaluvchi fe'l formasini A. F. G'ulomov «kelasi zamon davom fe'li», S. Usmonov «kelasi zamon maqsad fe'li», U. Tursunov va J.Muxtorovlar «kelasi zamon lozim fe'li» deb ataydi (Yuqorida ko'rsatilgan asarlariga qaralsin). Ana shu faktlarning o'ziyoq o'zbek tilida zamon formalarning qay darajada o'rganilganini rav-shan ko'rsata oladi.

Zamon formalari harakatining nutq momentiga munosabatini bildirishini va harakatning nutq momentiga munosabatiga ko'ra fe'llar uch turga — o'tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon fe'llariga bo'linishini ko'rdik. Maktab grammatikasidan tortib oliy o'quv yurtlari uchun chiqarilgan darslik va qo'llanmalarda ham «fe'l zamonlari» bobida fe'llar uch gruppaga bo'linadi va uch xil sarlavhacha bilan — «o'tgan zamon fe'li», «hozirgi zamon fe'li», «kelasi zamon fe'li» sarlavhasi bilan beriladi. Demak, bularda fe'llar harakatning nutq momentiga ko'ra gruppalanadi va har bir gruppada shunday munosabatni ko'rsatuvchi formalar tekshiriladi. Lekin o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqilsa, «zamon kategoriyasi» bo'limida fe'llarni «o'tgan zamon fe'li», «hozirgi zamon fe'li», «kelasi zamon fe'li» kabi gruppalariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'lmaydi, hatto, zamon formalari bunday gruppalashni turi deyish ham mumkin bo'lmay qoladi. Chunki, o'zbek tilidagi fe'lning zamon formalari, xuddi fe'llarni ular bildirgan harakatning nutq momentiga munosabatiga ko'ra uch turga ajratgandek, uch gruppaga ajratib bo'lmaydi. Masalan, hozirgi o'zbek tilida fe'lning hozirgi-kelasi zamon formasi borligi ma'lum. Bu forma ko'pchilik ishlarda «hozirgi zamon» fe'li bo'limida berilsa, ba'zi ishlarda «kelasi zamon fe'li» bo'limida beriladi. Lekin ikkala holatni ham turi deb bo'lmaydi. Chunki, u faqat hozirgi zamon yoki faqat kelasi zamon formasi emas, balki hozirgi va kelasi zamon ma'nolarini ifodalay oladigan formadir. Demak, fe'llar harakatning nutq momentiga munosabatiga qarab gruppalanadigan bo'lsa («o'tgan zamon fe'li», «hozirgi zamon fe'li», «kelasi zamon fe'li» kabi), u holda hozirgi-kelasi zamon formasini bu uch gruppaning birortasiga ham kiritib bo'lmaydi, ya'ni bulardan birining maxsus formasi hisoblab bo'lmaydi. Shu hodisaning o'ziyiq zamon formalari fe'llarni ular bildirgan harakatning nutq momentiga munosabatiga qarab gruppalagandek gruppalash mumkin emasligini ko'rsatadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'lning o'tgan va hozirgi zamoni formalarga boy, kelasi zamon fe'lida esa boshqacharoq holni ko'ramiz. Aniq bo'lsin uchun yuqorida ko'rsatilgan asarlarda kelasi zamon fe'li yasovchi affiks sifatida keltirilgan formantlarga qisqacha to'xtab o'taylik.

-(a)r. Bu affiks yordamida yasaluvchi forma deyarli barcha ishlarda «kelasi zamon gumon fe'li» deb ta'riflanadi. Lekin harakatning nutq momentiga munosabatini ko'rsatishi jihatidan u yozadi, ishlaydi tipidagi hozirgi-kelasi zamon fe'lidan farqlanmaydi. Undan faqat gumon ma'nosiga egaligi bilan farqlanadi. Hozirgi-kelasi zamon fe'li bildirgan harakatni gumonlik ma'nosi bilan ifodalashda har qanday holatda ham -(a)r affiksi bilan yasaluvchi formani qo'llash mumkin. Qiyoslang: zavodda ishlaydi—(balki) zavodda ishlar, ertaga keladi—(balki) ertaga kelar. Demak, ishlaydi, keladi tipidagi formani faqat kelasi zamon fe'lning maxsus formasi hisoblab bo'lmagani kabi ishlar, kelar tipidagi formani ham faqat kelasi zamon fe'l formasi deb bo'lmaydi. Bu forma hozirgi-kelasi zamon gumon fe'li hisoblanadi.

-jak. Bu affiks bilan yasaluvchi forma, odatda, «qat'iy kelasi zamon»; yoki «aniq; kelasi zamon fe'li» deb ta'riflanadi. Biroq, hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtai nazaridan,

kelgusida bajarnlishi anih, hat'iy bo'lgan harakatni ifodalashda doim hullanuvchi forma -jak affiksi bilan yasaluvchi forma deya olmaymiz va shu ma'noni ifodalashda doim mazkur forma qo'llanishi kerak degan hukm ham chiqara olmaymiz. -jak affiksi bilan yasaluvchi forma o'zbek adabiy tili uchun asos bo'luvchi shevalarda qo'llanmaydi. U 1929-yil imlo konferensiyasida «har bir shevadan qandaydir forma olinishi kerak» degan noto'g'ri yo'l bilan, norma saylash prinsiplariga asoslanilmagan-holda, adabiy forma sifatida qonunlashtirilgan. Hozirgi vaqtda badiiy asar, jurnal va gazetalarda ba'zan uchrab tursada, lekin -jak affiksi bilan yasaluvchi formani hozirgi o'zbek adabiy tiliga xos forma deb qarash uchun yetarli asosimiz yo'q. Kelgusida bajarilishi aniq, qat'iy bo'lgan harakatni ifodalashda keladi, ishlaydi tipidagi hozirgi-kelasi zamon formasi qo'llanaveradi.

-moqchi. Bu affiks yordamida yasaluvchi fe'l formasi harakatning nutq momentiga munosabatini ko'rsatmaydi, balki harakatni bajarish maqsadini (maqsad ma'nosini) bildiradi. Shunga, ko'ra uni ijro maylining kelasi zamon formasi deb qarash mumkin emas (Bu haqda «Mayl kategoriyasi» bo'limida ham gapirilgan edi).

-digan. Bu affiks bilan yasaluvchi forma kesim vazifasida kelganda maqsad yoki lozimlik ma'nosini bildirishi mumkin. Lekin u harakatning nutq momentiga munosabatini bildirmaydi (harakatning nutq momentidan so'ng bajarilishini ko'rsatmaydi).

Binobarin, bu formani ham aniqlik maylining kelasi zamon formasi deb bo'lmaydi.

Ko'rinadiki, hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtai nazaridan faqat kelasi zamon ma'nosini ifodalovchi biror maxsus forma bor deyish qiyin. Kelasi zamon ma'nosi (harakatning nutq momentidan keyingi oidligi) adabiy tilda hozirgi-kelasi zamon forma-si (keladi, ishlaydi tipidagi forma) orqali ifodalanadi. O'zbek adabiy tili uchun asos bo'ladigan shevalarda ham xuddi shunday. Demak, zamon kategoriyasi bo'limida fe'llarni ular bildirgan harakatning nutq momentiga munosabatiga qarab gruppalar: (o'tgan zamon fe'li, hozirgi zamon fe'li, kelasi zamon fe'li ka-bi gruppaga ajratib) o'rganish bu jihatdan) ham maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Bizningcha, «Fe'l zamonlari» bobida zamon formalarini harakatning nutq momentiga munosabatini ko'rsatish xususiyatiga ko'ra gruppalar o'rganish turi maqsadga muvofiq bo'ladi (temaning maqsadi ham harakatning nutq momentiga munosabatini ko'rsatuvchi formalarining xususiyatini ochishdir). Shunday qilinganda, birinchidan hozirgi-kelasi zamon formasini majburiy va noto'g'ri ravishda hozirgi zamon yoki kelasi zamon fe'l formasi qatoriga kiritishdan, ikkinchidan, kelasi zamon fe'li bor ekan, uning o'zi uchun xos bo'lgan (maxsus) forma bor deb, shunday formani zo'rma-zo'raki qidirish va topish harakatidan qutulamiz. Bu esa til hodisasiga obyektiv yondashish bo'ladi. Harakatning nutq momentiga munosabatini ko'rsatish xususiyatiga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tilidagi fe'lning zamon formalari uch asosiy gruppaga bo'linadi:

- o'tgan zamon formalari (bordi, borgan, boribdi, borgan edi va b.); :

- hozirgi zamon formalari (boryapti, bormoqda, borib turibdi va b.);
- hozirgi-kelasi zamon formasi (boradi, ishlaydi kabi).[3]

Xulosa qilib aytadigan bolsak,fe'lning o'tgan zamon,kelasi va hozirgi shakli haqida turli qarashlar mavjud bo'lsa-da yuqorida keltirilgan formalar asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Hozirda biz zamon fe'llari shakllarini shu tartibda tasnif qilib kelmoqdamiz

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.G'.Abdurahmonov,Sh. Shukurov,Q.Mahmudov "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" -T.,2008.
- 2.Shukurov.Sh "O'zbek tilida fe'l zamonlari taraqqiyoti".-T.,1976.
- 3.A.Hojiyev."Fe'l" T-1973.